Biologiya

8 sinf


62 - dars

Mavzu: Eshitish organlarining tuzilishi, eshitish gigiyenasi

Eshitishning ahamiyati.


- Odam atrof-muhitdan tovush to'lqinlarini eshitish organlari orqali qabul qiladi;
- Eshitish orqali odam nutq o'rganadi va o'zaro muloqot qiladi;
- Eshitish analizatori ham ko'rish singari periferik, o'tkazuvchi va markaziy qismlardan iborat;
- Odam va boshqa sutemizuvchilar qulog'i tashqi, o'rta va ichki bo'limga ajratiladi.

Quloqning tuzilishi



Tashqi quloq


- Quloq suprasi va tashqi eshitish yo`lidan iborat;
- Quloq suprasi tovush to`lqinlarini kuchaytiradi va eshitish yo'liga yo'naltiradi;
- Tashqi quloq nog'ora parda bilan tugaydi.



1. Quloq suprasi
2. Tashqi eshitish yo‘llari


O'rta quloq

- 0'rta quloq bo'shlig'ida o'zaro ketma-ket birikkan 3 eshitish suyakchalari joylashgan;
- **Bolg'acha** nog'ora pardaga yopishgan;
- **Sandoncha -** bir tomoni bolg'acha dastasiga, ikkinchi tomoni uzangichaning yuqori qismiga tutashgan;
- **Uzangicha -** yuqori qismi sandonchaga, kengaygan ikkinchi uchi ichki quloqning oval teshikchasini yopib turadigan elastik pardaga yopishgan.



Ichki quloq

- Bo'shliq, yarimdoira kanalchalar va chig'anoqdan iborat;
- Ular tashqi tomondan suyak labirint, uning ichida parda labrrintdan tashkil topgan;
- Suyak va parda labirint orasida perilimfa suyuqligi, parda labirint ichida esa endolimfa suyuqligi bo'ladi;
- Endolimfa suyuqligida eshitish retseptorlari joylashgan.




Eshitish organlari funksiyasi

- Tovush to'lqinlari tashqi quloqning eshitish yo'li orqali o'tib, nog'ora pardani, so'ngra o'rta quloq suyakchalarini tebratadi;
- Suyakchalar tovushni ichki quloqning oval teshikchasiga o'tkazadi;
- Tovush to'lqinlari ichki quloq suyuqligiga ham o'tadi;




- Tovush tebranishlarini ichki quloq retseptorlari nerv impulslariga aylantiradi;
- Impulslar eshitish nervlari orqali miya yarimsharlarining chakka qismidagi eshitish markaziga o'tadi;
- Bu yerda tovushning xususiyati, kuchi va balandligi tahlil qilinadi.




Eshitishning buzilishi, eshitish gigiyenasi.

- Eshitish pasayishining sababi ko'pincha tashqi eshitish yo'lida oltingugurt to'planib qolishi bilan bog'liq;
- Bu moddani tashqi eshitish yo'lidagi bezlar ishlab chiqaradi. Bunday hollarda shifokorga murojaat qilish zarur;
- Oltingugurt tiqinini cho'p yoki o'tktr narsalar bilan olishga urinish quloqning nog'ora pardasiga jarohat yetkazishi mumkin.



- Kuchli shovqin quloqqa uzoq vaqt davomida ta'sir qilib turganida nog'ora pardaning tarangligi pasayib, quloq eshitmaydigan bo'lib qoladi;
- O'ta kuchli tovush, masalan, portlashda hosil bo'ladigan tovush to'lqini nog'ora pardani yirtib yuborishi mumkin;
- Portlash vaqtida og'izni ochib turish nog'ora pardaga ta'sirni kamaytiradi.



Uyga vazifa

Darslikda berilgan mavzuni o‘qib o‘rganib, tayanch so`zlarni tahlil qiling

